



№3 Ma`ruza

TABIY RESURLAR VA ULARNING KLASSIFILATSIYASI FOYDALANISHNING VA ULARNI MUHOFAZA QILISHNING ASOSLARI. TABIIY RESURLARDAN SAMARALI

REJA:

- 1. Tabiiy resurslar to`g`risida tushuncha.**
- 2. Tabiiy resurslarning klassifikatsiyasi.**
- 3. Tabiiy resurslardan foydalanishning printsip va qoidalari.**
- 4. Tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari.**

*Lektor: T.f.d., Ekologiya va hayot xavfsizligi xalqaro
fanlar akademiyasi a`zosi Jumayeva D.J.*

Ekologik aforizmlar



Atrof muhit ekologiyasining buzilishiga asosiy sabablardan biri tabiiy boyliklardan foydalanishda moddiy va ma'naviy javobgarlikni his qilmaslik sanoat sohasida katta hajmda mahsulitlar ishlab chiqarish ilinjida vaqtida sanoat chiqindilarini zararsizlantirish masalalariga e'tibor bermaslikdir"

I.A.Karimov

Tabiiy resurslar

Tabiiy resurslar - bu frantsuzcha soʻz boʻlib, imkoniyat degan ma'noni anglatadi.

Tabiiy resurslar – bu inson oʻzining hayot faoliyati uchun tabiatdan oladigan va kelajakda olishi mumkin boʻlgan barcha noz-ne'matlardir. Tabiat inson uchun yashash muhiti va resurslar manbai hisoblanadi. Atmosfera havosi, yer, suv, quyosh nuri, iqlim yer osti boyliklari, iqlim, oʻsimliklar va hayvonot dunyosi – bularning barchasi tabiiy resurslardir.


Tabiiy resurslar ulardan foydalanish vaqtiga koʻra 2 ga boʻlinadi: real va potentsial resurslar. *Real resurslarga* inson hozirgi vaqtda foydalanayotgan resurslar kiradi. *Potentsial resurslar* esa inson ayrim sabablarga koʻra hozircha foydalanmayotgan, ammo kelajakda foydalanishi mumkin boʻlgan resurslardir.

Tabiiy resurslar oʻzlarining tarkibiy tuzilishiga koʻra ham 2 ga boʻlinadi: elementar (sodda) va kompleks (murakkab) resurslar.

Elementar resurslarga misol qilib Mendeleyevning davriy sistemasidagi barcha kimyoviy elementlarni, shuningdek shamol energiyasi va turli xildagi nurlarni keltirish mumkin.

Kompleks resurslarga kimyoviy elementlarning birlashmalarini (m., toshkoʻmir, suv, havo, turli xildagi rudalar va h.k.z) kiritish mumkin. Demak, kompleks resurslar elementar resurslardan tashkil topadi.

TABIYY RESURSLAR



TABIY RESURLAR


Kompleks resurslarga kimyoviy elementlarning birlashmalarini (m., toshko`mir, suv, havo, turli xildagi rudalar va h.k.z) kiritish mumkin. Demak, kompleks resurslar elementar resurslardan tashkil topadi. Elementar va kompleks resurslar tushunchasini jonli tabiatga nisbatan ham qo`llash mumkin. Bu o`rinda elementar resurslarga misol qilib ma`lum bir maydondagi o`simlik yoki hayvon populyatsiyasini olish mumkin. Shu maydondagi biotsenozni esa kompleks resurs deyish mumkin. Tabiiy resurslar o`zlarining chekli va cheksizligiga ko`ra 2 guruhga bo`linadi: tugaydigan va tugamaydigan resurslar.

1. Tugaydigan resurslar 2 xil bo`ladi: a) tiklanadigan resurslarga - bularga tuproq, hayvonot va o`simliklar olami misol bo`ladi. Agar biror sababga ko`ra bu resurslarga nisbatan ma`lum vaqt noto`g`ri munosabatda bo`linsa ular zaiflashib va kamayib qoladi, keyinchalik to`g`ri munosabatda bo`linganida ular son va sifat jihatidan qayta tiklanishi mumkin. Tiklanish tezligi turli resurslarda turlicha bo`ladi. Masalan, agar kesib tashlangan o`rmonni qayta tiklash 60-80 yilni talab qilsa, unumdorligi yo`qolib, kuchli zaharlangan yerning tuprog`ini tiklash yuzlab, minglab yillarni talab qiladi. Ehtiyotsizlik qilinganda tiklanadigan resurslar tiklanmaydigan resursga aylanishi mumkin.

Tabiiy resurslarning klassifikatsiyasi

Elementar va kompleks resurslar tushunchasini jonli tabiatga nisbatan ham qo'llash mumkin. Bu o'rinda elementar resurslarga misol qilib ma'lum bir maydondagi o'simlik yoki hayvon populyatsiyasini olish mumkin. Shu maydondagi biotsenozni esa kompleks resurs deyish mumkin.

Tabiiy resurslar o'zlarining chekli va cheksizligiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi: tugaydigan va tugamaydigan resurslar.



Tabiiy resurslarning klassifikatsiyasi

Fan texnikaning rivojlanishi, olimlarni yana xam yangi mineral konlarni kashf kilishga majbur kilmokda. Masalan, Yaponiya olimlarining ma`lumotlariga kura, okean tagidagi metall koncentraciyalari xisobiga dune sanoatini xozirgi iste`mol darajasi mis bilan 2000 yil, nikel bilan 70 000 yil marganec bilan 14 000 yil ta`minlash mumkin. Bu boyliklardan dune sanoati extiej uchun 1% dan 20 % gacha foydalanilmokda. Bundan tashkari er osti minerallari kupchilik xollarda 1 eki 2 metall xisobga kazib olinib kolgan kismi atrof muxitga tashlab yuboriladi.

Tabiiy resurslarning klassifikatsiyasi

- **Tabiiy resurslar** esa tabiiy sharoitning bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, «tabiiy sharoit» inson hayoti va faoliyatini belgilab beruvchi, lekin ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan tabiat elementlaridir. Tabiiy sharoit va moddiy resurslar majmuasi jamiyat taraqqiyotining tabiiy-moddiy omillari hisoblanadi.
- BMT ning ma'lumotiga karaganda, duneda yiliga 32 mlrd.t. kumir 2.6 mlrd.tn. neft`, 6 mlrd.t. temir rudasi, 3.6 mln.t. xrom rudasi, 7.3mln.t. mis rudasi, 3-4mln.t. kurgoshin rudasi, 159 mln.t. tuz, 120 mln.t. fosfotlar, 1.2mln.t. uran, simob, molebdan, nikel, kumush, oltin, platina rudalari kazib olinmokda. Mutaxassislarning bergan ma'lumotlariga kura, agar kazilma boyligidan xozirgi sur`atdan foydalanilsa, oltin 30-35yilda, rux 36: surma - 70: kaliy-40: uran-47: mis -66: simob-70: kumir,neft`, gaz, 150 yilda tugab kolishi mumkin.Shu sababli kupgina rivojlangan mamlakatlar: Yaponiya, Angliya, Germaniya, Italiya, Gollandiya, Belgiya va boshka mamlakatlarda xom ashe, er osti boylklari etishmasligi okibatida ikkilamchi chikindilarni kayta ishlash va boshka mamlakatlarning boylklaridan foydalanilmokdalar.

TABIY RESURLAR

«Tabiiy sharoit» va «Tabiiy resurs» keng qo'llaniladigan tushunchalar qatoriga kiradi.

«**Tabiiy sharoit**» - biron bir ob'ektga aloqador bo'lgan tabiatning barcha jihatlarini o'ziga qamrab olgan bo'lib, juda keng ma'noga ega tushuncha. Mantiqiy yondashuv sharoit nimaga taalluqli ekanligini aniq ko'rsatilishini, ya'ni «sanoatni rivojlantirishning tabiiy sharoiti», «dehqonchilikni rivojlantirishning tabiiy sharoiti», «temir yo'l qurilishining tabiiy sharoiti», «inson hayotiy faoliyatining tabiiy sharoiti» va h.k. tarzda ifodalashni talab qiladi.

Tabiiy resurslar klassifikatsiyasi

b) tiklanmaydigan resurslarga qazilma boyliklar misol bo`ladi. Bularning tiklanish jarayoni ularni o`zlashtirish tezligidan ming va million martalab sekin kechadi. Shuning uchun ham bu xildagi resurslardan foydalanishda ularning potentsial miqdorini hisoblab chiqish va shunga qarab ish tutish lozim. Tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslardan foydalanish printsiplari bir-biridan tubdan farq qiladi. Tiklanadigan resurslardan foydalanganda ulardan chala foydalanish ya'ni ularni foydalanilgan joylarda ma'lum miqdorda qoldirish zarur. Qayta tiklanmaydigan resurslardan foydalanilganda esa buning teskarisi. Qazib olish paytidagi yo`qotishni kamaytirish maqsadida neft va gaz quduqlariga kuchli bosimda suv yuboriladi. Bu suv neft va gaz to`plangan yer qatlamlariga kirib, ularni siqib chiqaradi. Nefti og`ir va quyuq bo`lgan qatlamlarga esa katta bosimda suv bug`i yuboriladi. Rangli va nodir metallarni olishda esa yer ostiga tsianid kislotasi yuborib, ular eritib olinadi.

2. Tugamaydigan resurslarga suv, iqlim, kosmik resurslar va suvning ko`tarilib-tushish energiyasi kiradi. Tabiatda mavjud suvning miqdori qanday maqsadga va qancha foydalanishdan qat'iy nazar tugamaydi. Suv bir holatdan boshqa holatga o`tib, yer va havo orasida aylanib yuradi. Garchi umumiy suv resurslari tugamaydigan resurs hisoblansada, lekin daryo suvlari tugaydigan resurslarga kiradi.

Tabiiy resurslardan foydalanishning printsip va qoidalari

Tabiiy resurslardan foydalanishning printsip va qoidalari tabiatdagi barcha predmet va hodisalarning o`zaro bog`liqligiga asoslangan bo`lib, ular quyidagilardir: birinchi qoida – ko`pqirralilik qoidasi. Bu qoidaga ko`ra tabiiy resurslardan foydalanishda ularning ko`p qirrali ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish zarur. Masalan, o`rmon resurslaridan foydalanishda shuni hisobga olish kerak-ki, o`rmon xalq xo`jaligi uchun yog`och manbai bo`lib hisoblanadi. Bu yog`och qurilishda va kimyo sanoati uchun xom ashyo bo`lib xizmat qiladi. Lekin o`rmon resurslari bundan tashqari havoga kislorod yetishtirib beradi, tuproqda namlikni saqlaydi, tuproqni yuvilib ketishdan asraydi, mikroklimat hosil qiladi, insonga meva-chevalar yetkazib beradi.

ikkinchi qoida – regionallik qoidasi. Har bir joyning tabiiy resursidan foydalanishda bu resursning o`sha joydagi miqdorini hisobga olish zarur. Masalan, Yer yuzining turli regionlarida suv resurslari turlicha joylashgan. Agar shimoliy regionlarda suv serobligidan yer botqoqlashgan bo`lsa, janubda suv tanqisligidan yerlar qaqragan. Shuning uchun suvdan foydalanishda bu joylarda hisob-kitobli ish yuritilishi lozim;



Tabiiy resurslardan foydalanishning printsip va qoidalari

uchinchi qoida – o`zaro bog`liqlik qoidasi. Bu qoidaga ko`ra biror tabiiy resursdan foydalanish u bilan bog`liq bo`lgan boshqa resursning holatiga ham ta'sir qiladi. Masalan, ma'lum maydonda rudali ma'danlarning ko`plab olinishi o`sha joyning relfi va boshqa tabiiy holatlariga ta'sir qiladi, natijada bu joylarning o`simlik va hayvon dunyosi o`zgarib ketadi; elementar resurs hisoblangan azotning havodan ko`plab so`rib olinishi uning o`rnini boshqa gazlar egallashiga olib keladi va h.k.z.




Tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari

Ibtidoiy odamlar tabiiy resurslardan foydalanish davomida ularning kamayishi hodisasini sezib, o`z hayotlarini davom ettira olishlari uchun bu resurslarni muhofaza qilish kerak ekanligini tushunib yetganlar. Ammo bu faqatgina masalaning iqtisodiy tomonini hisobga olgan holda muhofaza qilish edi. Jamiyat rivojining keyingi davrlarda inson tafakkurining o`sishi bilan tabiat muhofazasining boshqa aspektlari ham kelib chiqaboshladi.

Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari quyidagilardan iborat:
1) iqtisodiy aspekt – uzoq o`tmishda kelib chiqqan bo`lib, hozirgi zamon va kelajak uchun ham muhimdir. Inson o`z iqtisodiy holatini yaxshilash uchun tabiiy resurslarni o`zlashtiradi. Ma'lumotlarga ko`ra qazilma boyliklardan foydalanish 1940 y. aholi jon boshiga dunyo bo`yicha o`rtacha 7,4 t.ni tashkil qilgan bo`lsa, 2000 yilga kelib bu miqdor 35-40 t.ga yetdi.



Tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari



Tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari

- BMT ning ma`lumotiga karaganda, duneda yiliga 32 mlrd.t. kumir 2.6 mlrd.tn. neft`, 6 mlrd.t. temir rudasi, 3.6 mln.t. xrom rudasi, 7.3mln.t. mis rudasi, 3-4mln.t. kurgoshin rudasi, 159 mln.t. tuz, 120 mln.t. fosfotlar, 1.2mln.t. uran, simob, molebdan, nikel, kumush, oltin, platina rudalari kazib olinmokda. Mutaxassislarning bergan ma`lumotlariga kura, agar kazilma boyligidan xozirgi sur`atdan foydalanilsa, oltin 30-35yilda, rux 36: surma -70: kaliy-40: uran-47: mis -66: simob-70: kumir,neft`, gaz, 150 yilda tugab kolishi mumkin.Shu sababli kupgina rivojlangan mamlakatlar: Yaponiya, Angliya, Germaniya, Italiya, Gollandiya, Belgiya va boshka mamlakatlarda xom ashe, er osti boyliklari etishmasligi okibatida ikkilamchi chikindilarni kayta ishlash va boshka mamlakatlarning boyliklaridan foydalanilmokdalar.

Tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari

Hozirgi vaqtda har yili yer ostidan 1000 mlrd.t. yoqilg`i va qurilish materiallari qazib olinadi, 800 mln.t. metall eritiladi. 1984 yil ma'lumotiga ko`ra Yer yuzida 2,5 mlrd t. neft va 20 mlrd. t. ko`mir yoqilgan, 2 mlrd m³ yog`och ishlatilgan, 50 mln. t. baliq, qisqichbaqa va mollyuskalar ovlangan. Xulosa qilib aytganda biz tabiiy resurslardan qanchalik ko`p foydalansak, shunchalik iqtisodimiz ko`tariladi, ammo bunda ularning tugab qolishi mumkinligini hisobga olib, ularni iqtisod zaruriyati uchun ham muhofaza qilish zarur.



Tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari

Kazilma boyliklarni kidirib topish, kayta ishlash va tashish jaraenida er yuzasi strukturasi buziladi xosildor maydonlar kiskaradi, usimliklar nobud buladi, tuprok eroziyasi tezlashadi, okibatda yaroksiz erlar maydoni oshadi. Shunday kilib erlar xozir dunyoda 10 mln. gektarni tashkil kilsa, 2 000 yilga borib 5-6 barobar oshadi. Masalan, 1tn.temir olish uchun 5-6 tn. ruda, 1 tn.kurgoshin olish uchun 60-90 tn, 1 tn. rux olish uchun 80-100 tn. 1 tn. mis olish uchun 100-140 tn, 1 tn. mis olish uchun esa 60 000-80000 tn. ruda ishlatiladi. Xozir er yuzasida millionlab tonna metallurgiya shakllari, issiklik elektr stanciyalaridan chikkan kuplab tog uyumlarini tashkil kilgan.Xisoblarga kura sunggi 100 yil ichida dunyoda 20 mlrd.tn. dan ortik shpak, 3mlrd.tn. kul, 17mln.tn.mish`yak, 1mln.t. nikel, 1 mln.t.kobot va boshka foydali elementlar chikarib tashlangan.



● Zarafshon shaxridagi Muruntov oltin konidan kazib olinetgan chigitdan kazib olinatgan chigitlar tashlanadigan maydoncha 5 200 ga maydonni tashkil kilib, xozirgi kunda bu maydon tulib bitgan. Ikkinchisini maydoni 6 200 ga ni tashkil kiladi. Chikindining tarkibida natriy ceonidi 150 mg/l, temir birikmasi 9 mg/l, mis 5.5 nikel-17: kobolt-0. 25 cink-0.5: molebdan-17: mish`yak-2.5: alyuminiy-25: kurgoshin 3mg/l tashkil kiladi. Uzbekiston zaminida mavjud bulgan boyliklarda ega davlatlar jaxon xaritasida kup emas. Bu boyliklarning kuchiligi xam ishga solinmagan. Bu esa butun dunyoga shashxur chet el komponentlari va banklarining e`tiborini jalb etishi anik.



Tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari

Gigiyena – sog`lomlashtirish aspekti – atrof muhit ifloslanishining kishilar sog`ligiga ta'sir ko`rsatishi munosabati bilan yaqin o`tmishda kelib chiqdi. Iqtisodni ko`tarish uchun tabiatga o`tkaziladigan ta'sir, agar u puxta o`ylab qilinmasa, teskari natijalar berishi mumkin. Masalan, 1959 y. AQSH ning Michigan shtatida yapon qo`ng`izlariga qarshi dalalarga sepilgan zaharli ximikatlardan tuproq jiddiy zaharlanib, uning hosildorligi pasayib ketdi, bundan hayvonot olami ham jiddiy zarar ko`rdi. Sobik Ittifoq davrida bunday hodisalar O`zbekistonda ham sodir bo`lib turar edi. Buning saboqlari hozirgacha sezilib kelmoqda. Yashayotgan muhitimiz sofligini saqlash salomatligimiz garovidir, shunga ko`ra sog`lomlashtirish aspektining muhimligi doimo saqlanib qoladi.

Tabiiy resurslarni muhofaza qilishning aspektlari

- Xozirga kadar 2,7 mingdan zied turli foydali kazilma zaxiralari va madan namoen bulgan istikbolli joylar aniklangan. Ular 100ga yakin mineral-xom asho turlarini uz ichiga oladi. Shundan 60dan ortigi ishlab chikarishga jalb etilgan. 900dan ortik kon kidirib topilgan bulib, ularning tasdiklangan zaxiralari 970 mlr. AKSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral xom-ashe potencial 3,3 trilion AKSh dollaridan ortikrok baxrlanayotganini xam aytib utish kerak. Goyat muxim strategik manbalar-neft` va gaz kondensati, tabliy gaz buyicha 155ta istikbolli kon, kimmat baxo metallar buyicha- 40dan ortik, rangli, nodir va radiaktiv metallar buyicha – 40, kon chilik-kime xom ashesi buyicha 15ta kon kidirib topilgan. Kidirib topilgan foydali kizilmalarning xozirgi darajasi va u bilan boglik xolda kimmat baxo, rangli va dodir metallar, barcha turdachi enilgi zaxiralari – neft` va gaz kondensati, tabliy gaz, kupgina mineral-xom ashe va kurulish materiallari xillarining goyat boy konlarini uzlashtirishrespublikaning kelajagiga ishanch bilan karash imkonini bermokda.



Mavzu yuzasidan savollar:



- **1. Tabiiy resurslarga nimalar kiradi ?**
- **2. Tabiiy resurslar qanday klassifilatsiyalanadi ?**
- **3. Tabiiy resurslardan foydalanish shartlarini tushuntiring ?**
- **4. Tabiiy resurslarni muhofazasi masalalarini asoslab bering ?**



*E`tiboringiz uchun
tashakkur*